


# Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

 <b>Jumamuratov Mirzamurat Ajimuratovich</b>	Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti o`quv ishlari bo`yicha prorektor	
	Manzil:	230100, Nukus shahri, P.Seytov ko`chasi raqamsiz uy
	Telefon:	0(361) 229-40-68
	E-mail:	<a href="mailto:Nukdpi_uquv@edu.uz">Nukdpi_uquv@edu.uz</a>

 <b>Qadirov Quvondiq Aytbaevich</b>	Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti ma`naviy va ma`rifiy ishlari bo`yicha prorektor	
	Manzil:	230100, Nukus shahri, P.Seytov ko`chasi raqamsiz uy
	Telefon:	0(361) 229-40-93
	E-mail:	<a href="mailto:nukdpi_manaviyat">nukdpi_manaviyat</a>

Qabul kunlari:	Har dushanba va payshanba soat 15-00-18-00 gacha
----------------	---

 <b>Jalelov Moyatdin Asanovich</b>	Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektor	
	Manzil:	230105, Nukus shahri, e.Alako'z ko'chasi 54-uy
	Telefon:	0(361) 224-14-63
	E-mail:	moyatdin@mail.ru
	Qabul kunlari:	Har chorshanba va shanba soat 15-00-18-00 gacha

 <b>Ibadullaev Rashid Qurbanbaevich</b>	Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti ma`naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor	
	Manzil:	230100, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi raqamsiz uy
	Telefon:	0(361) 229-40-95
	E-mail:	NukDPI@edu.uz
	Qabul kunlari:	Har seshanba, payshanba va shanba soat 15-00-18-00 gacha

## **AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTINING USTAVI**

### I. Umumiy qoidalar

1.1 Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti (matnda keyingi o`rinlarda “Institut” deb beriladi) O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (o`sha davrdagi O`zbekiston SSJ Vazirlar Kengashi) ning 1990 yil 20 avgustidagi “Nukus shahrida davlat pedagogika institutini tashkil etish to`g`risida” gi 297-sonli Qarori va Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi (o`sha davrdagi Qoraqalpog`iston ASSR Ministrlar Soveti) ning 1990 yil 14 sentyabrdagi “Nukus davlat pedagogika institutini Nukus davlat universiteti bazasida tashkil etish to`g`risida” gi 227/9-sonli qarori asosida tashkil qilingan. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentyabrdagi “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash, xalq ta`limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-3289-sonli Qarori bilan Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Xalq ta`lim vazirligi tasarrufidan chiqarilib, O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining tashkiliy tuzilmasiga kiritilgan.

1.2. Institut davlat oliy ta`lim muassasasi hisoblanib, oliy ta`limning asosiy va qo`shimcha ta`lim dasturlarini bajarish bo`yicha ta`lim faoliyati bilan shug`ullanadi. Institut oliy ta`limning pedagogika yo`nalishlari bo`yicha pedagog kadrlarni xalqaro standartlar darajasida sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasida respublikaning oliy ta`lim muassasasi hisoblanadi. Shuningdek, O`zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariiga muvofiq o`quv, ilmiy-metodik va boshqa faoliyatni amalga oshiradi hamda ta`lim xizmatlarini ko`rsatadi.

1.3. Institut o`z faoliyatida O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O`zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksiga, Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining normativ-huquqiy hujjatlari va ko`rsatmalari, shuningdek, institutning ichki tartib va odob-ahloq qoidalari, jamoa shartnomasi hamda mazkur Ustavga amal qiladi.

1.4. Institut yuridik shaxs hisoblanib, operativ boshqaruvida o`ziga xos maxsus mol-mulkka ega va ushbu mol-mulk bo`yicha o`z majburiyatlariga muvofiq javob beradi, o`z nomidan mol-mulk sotib olishi va mulkiy hamda nomulkiy huquqlarni amalga oshirish, zimmasiga majburiyat olishi, sudda da`vogar va javobgar bo`lishi mumkin.

1.5. Institut mustaqil balansga, bank muassasalarida byudjet va maxsus hisob raqamlariga, O`zbekiston Respublikasi davlat gerbi tasviri tushirilgan va o`z nomi yozilgan muhrga, shtamplar va boshqa rekvizitlarga ega.

1.6. Institut internet tizimida o`zining rasmiy [www.ndpi.uz](http://www.ndpi.uz) saytiga ega.

1.7. Institutning joylashgan yuridik manzili Indeks 230105 O`zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog`iston Respublikasi, Nukus shahri, P.Seytov ko`chasi, raqamsiz uy.

1.8. Institutning rasmiy to`liq va qisqa nomi:

- davlat tilida: kirill alifbosida: “Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti” – “Nukus DPI”
- qoraqalpoq tilida: “Әjiniyaz atындаг`ы Нөкис мәмлекеттік педагогикалық институты-Нөкис MPI”;
- davlat tili: lotin alifbosida: “Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti”–“Nukus DRI”;
- rus tilida: “Nukusskiy Gosudarstvennyy pedagogicheskiy institut imeni Ajiniyaza”–“Nukuskiy GPI”;

ingliz tilida: “Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz” – “Nukus SPI”.

## II. Institutining asosiy vazifalari va faoliyati yo`nalishlari

-respublikada uzlusiz ta`lim tizimi uchun yuqori malakali pedagogik kadrlarni xalqaro standartlar darajasida sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

-tegishli pedagogik yo`nalishlar va mutaxassisliklar bo`yicha davlat ta`lim standartlari, o`quv rejalarini va dasturlarini ishlab chiqish yuzasidan takliflar berish, ilmiy-metodik adabiyotlarni ishlab chiqish;

-institut ilmiy-pedagogik va o`quv-metodik faoliyatini muvofiqlashtirish hamda pedagog kadrlarning har tomonlama etuk,

- raqobatbardosh mutaxassislar bo`lib etishishlariga mo`ljallangan kompleks ma`naviy-ma`rifiy ishlarni amalga oshirish;
- o`quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, mul`timedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- umumiyl o`rta, o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonini tashkil etish;
- qo`shma ilmiy loyihalarni amalga oshirish, ilmiy-ta`lim jarayoniga etakchi xorijiy mutaxassislarni jalb etish maqsadida xorijiy pedagogika oliy ta`lim muassasalari va ilmiy markazlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish;
- ilmiy-pedagogik xodimlar va ta`lim oluvchilarining tadqiqotlari va ijodiy faoliyatlarini orqali fanni taraqqiy ettirish, olingen natijalardan ta`lim jarayonida foydalanish.

### III. O`quv-tarbiyaviy va ilmiy-metodik ishlarning sub`ektlari, ularning huquq va majburiyatlar

Talabalar:

3.1. Institut rektorining buyrug`i bilan o`qishga qabul qilingan shaxs mazkur institutning talabasi hisoblanadi. Talabaga talabalik guvohnomasi hamda reyting daftarchasi bepul beriladi.

Institutga qabul amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda umumiyl o`rta, o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi ma`lumatiga ega bo`lgan shaxslar arizalariga binoan O`zbekiston Respublikasi oliy ta`lim muassasalariga talabalarni qabul qilish tartibi va qoidalariiga muvofiq O`zbekiston Respublikasi ta`lim muassasalariga qabul qilish bo`yicha Davlat komissiyasi tomonidan test sinovlari natijalariga ko`ra to`plangan ballarning reytingi tizimi bo`yicha amalga oshiriladi.

Oliy ta`lim muassasalariga qabul barcha uchun (ham grantlar, ham to`lov-kontrakt bo`yicha) teng huquqlilik, yagona qabul qoidalari va yagona tanlov asosida amalga oshirilib, test sinovlarida eng yuqori ball to`plagan abiturientlarning davlat grantlari bo`yicha birinchi navbatda qabul qilinish huquqi ta`minlanadi. Qolgan abiturientlar test ballari reytingi asosida belgilangan to`lov-kontrakt kvotalari doirasida qabul qilinish huquqiga egadirlar. Qonunchilikka muvofiq test sinovlarisiz muayyan imtiyoz asosida ham o`qishga qabul qilish kafolatlanadi.

### 3.2.Institutning talabalari quyidagi huquqlarga ega:

- fan, texnika, zamonaviy texnologiyalar yutuqlariga mos keluvchi bilimlar olish;
- oliy ta`lim muassasasi axborot resurs markazida mavjud bo`lgan kitoblar, davriy nashrlar, elektron ta`lim resurslaridan belgilangan tartibda bepul foydalanish;
- bepul maslahatlar va yo`l-yo`riqlar olish;
- auditoriyalar, ta`lim jarayoniga oid o`quv-texnik vositalardan o`rnatilgan tartibda bepul foydalanish;
- ta`lim jarayoni samaradorligi va ta`lim sifatini oshirish yuzasidan o`z taklif-mulohazalarini, tanqidiy fikrlarini belgilangan tartibda ta`lim muassasasi, dekanat va kafedra rahbariyatiga bildirish hamda ularni ko`rib chiqilishini talab qilish;
- oliy ta`lim muassasasi va fakul`tet miqyosida o`tkaziladigan ma`naviy-ma`rifiy va sport tadbirlarida ishtirok etish;
- ilmiy tadqiqot ishlarda va ilmiy konferentsiyalarda o`rnatilgan tartibda faol qatnashish;
- oliy ta`lim muassasasida qonuniy ravishda faoliyat yuritayotgan jamoat birlashmalariga a`zo bo`lish;
- o`qishdan tashqari vaqtarda ma`naviy-ma`rifiy, ta`mirlash, qurilish, ko`kalamzorlashtirish, qishloq xo`jalik va boshqa jamoat hamda qonunchilikka zid bo`limgan ishlarda ishtirok etish.

Talaba sifatli va yuqori saviyada bilim olishi, tanlagan ixtisosligi bo`yicha yuqori malakali mutaxassis bo`lib etishish uchun zarur bo`lgan qonun hujjatlariga zid bo`limgan boshqa huquqlardan foydalanishga haqlidir.

Talaba o`z huquqlarini suiste`mol qilmasligi, bu huquqlardan o`zga shaxslar manfaatiga zid maqsadlarda foydalanmasligi shart.

3.3 Davlat grantlari va to`lov-kontrakt asosida o`qitishning ishlab chiqarishdan ajralgan yoki ajralmagan holdagi shaklida ta`lim olayotgan talabalar O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartib va miqdorda stipendiya bilan ta`minlanadilar.

Talabalar tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga asosan O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyasi, Islom Karimov va Navoiy nomidagi Davlat stipendiyalarini hamda Institut kengashi qarori bilan belgilangan Ajiniyoz Qosibay ug`li, Ibrayim Yusupov nomidagi stipendiyalarni shuningdek, o`qishga yo`llagan yuridik va jismoniy shaxslar tayinlagan stipendiyalarni olish huquqiga egadirlar.

3.4. Kunduzgi o`quv shaklida ta`lim olayotgan talabalarga oliy ta`lim muassasasida o`qiyotgan vaqt davomida o`rnatilgan tartibda harbiy xizmatga chaqirish muddatini kechiktirish imkonи beriladi.

3.5. Oliy ta`lim muassasasining talabalar turar joyiga muhtoj talabalari, oliy ta`lim muassasasining talabalar turar joylaridan sanitariya-gigiena me`yorlari va qoidalariiga javob beradigan joy bilan ta`minlanadi. Talabalar turar joylarida to`lanadigan to`lovlarning hajmi kommunal-maishiy xizmatlar uchun to`lovlarni inobatga olib, oliy ta`lim muassasasi tomonidan belgilanadi. Talabalar turar joyiga muhtoj talabalar ehtiyoji mavjud bo`Imagan holda, oliy ta`lim muassasasi talabalar turar joylari maydonidan boshqa maqsadlarda foydalanishi (ijaraga berish, boshqa kelishuvlar)ga ruxsat etilmaydi.

Institutning talabalar o`qishdan bo`shtan vaqtlarida o`rnatilgan tartibda mehnat faoliyati bilan shug`ullanish huquqiga ega.

3.6. Institutdan chetlashtirilgan talaba O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Talabalar o`qishini ko`chirish, qayta tiklash va o`qishdan chetlashtirish tartibi to`g`risida”gi tasdiqlangan Nizomga muvofiq belgilangan tartibi hamda qoidalari asosida qayta o`qishga tiklanishi, o`qishni ko`chirishi mumkin.

Oliy ta`lim muassasasidan ma`muriyatning tashabbusi bilan chetlashtirilgan shaxslarni, barcha o`quv shakllari bo`yicha talabalar safiga qayta tiklash to`lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

Institutning talabalar qonunda belgilangan tartib va qoidalari asosida o`qishini ko`chirish (o`qishga qayta tiklanish) huquqiga ega.

O`zbekiston Respublikasi hududida ta`lim faoliyatini olib borish uchun litsenziyaga ega bo`Imagan, nodavlat oliy ta`lim muassasalari va boshqa mamlakatlar oliy ta`lim muassasalarining filiallari (markazlar, bo`limlar, o`quv-maslahat punktlari va boshqalar)dan talabalarни institutga o`qishini ko`chirish (o`qishga tiklash) ta`qilanganadi.

Institut rektorining qarori asosida talabalar o`qishini institut doirasida oliy ta`limning mos va turdosh yo`nalishlari (mutaxassisliklari) bo`yicha ko`chirish va tiklash amalga oshiriladi.

Institutning talabalar belgilangan tartib va qoidalari asosida boshqa oliy ta`lim muassasalariga o`qishlarini ko`chirish (o`qishga qayta tiklanish) huquqiga ega.

Talabalar o`qishini bir oliy ta`lim muassasasidan boshqasiga ko`chirish, qayta tiklash va o`qishdan chetlashtirish tartibi va qoidalari O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

3.7. Institut talabaları oliy ta`limning davlat ta`lim standartlari, malaka talablari, o`quv rejali va dasturlarida nazarda tutilgan bilimlarni egallashlari, topshiriqlarning barcha turlarini belgilangan muddatda bajarishlari zarur. Institutning Ustaviga, Ichki tartib va odob-ahloq qoidalari hamda talabalar turar joylarida yashash qoidalariiga rioya etishlari shart.

O`zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari, talabalarni o`qish vaqtin hisobidan ta`lim jarayoni bilan bog`liq bo`Imagan ishlarga jalb etish man etiladi.

3.8.O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 iyundagi 393-son qarori 3-ilovasida “Oliy ta`lim muassasalari talabalari o`qishini ko`chirish, qayta tiklash va o`qishdan chetlashtirish tartibi to`g`risida”gi Nizom keltirilgan tartibda talaba oliy ta`lim muassasasidan quyidagi hollarda chetlashtirilishi mumkin:

- a) o`z xohishiga binoan;
- b) o`qishning boshqa ta`lim muassasasiga ko`chirilishi munosabati bilan;
- v) salomatligi tufayli (tibbiy komissiya ma`lumotnomasi asosida);
- g) o`quv intizomini va oliy ta`lim muassasasining ichki tartib-qoidalarini buzganligi uchun;
- d) bir semestr davomida darslarni uzrli sabablarsiz 74 soatdan ortiq qoldirganligi sababli;
- e) o`qish uchun belgilangan to`lov o`z vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli (to`lov-kontrakt bo`yicha tahsil olayotganlar uchun);
- j) talaba sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;
- z) vafot etganligi sababli.

Harbiy xizmatni o`tash, salomatligini tiklash, homiladorlik va tug`ish, shuningdek bolalarni parvarish qilish ta`tillari davrida talabaga Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan tartib asosida akademik ta`til berilishi mumkin.

Belgilangan muddatlarda fanlarni o`zlashtira olmagan (akademik qarzdor bo`lgan) talaba institut rektori buyrug`i bilan kursdan qoldiriladi.

Akademik qarzdorligi tufayli kursdan qoldirilgan talaba to`lov-shartnoma asosida o`qishini quyi kursdagi o`quv semestri boshidan boshlashi mumkin.

Kursdan qoldirilgan talaba ushbu Ustavning 3.8-bandagi holatlar bo`yicha talabalar safidan chetlashtirilishi mumkin.

Institut ma`muriyati tashabbusi bilan ushbu Ustavning 3.8-bandi “e” kichik bandiga ko`ra talabalarni o`qishdan chetlashtirish talabalar kasaba uyushmasining yozma roziligini inobatga olgan holda (kasaba uyushmasi a`zosi bo`lgan talabalar uchun) amalga oshiriladi. Shuningdek, talaba mazkur Ustavning 3.8-bandi “g” kichik bandiga

ko`ra chetlashtirilayotgan holda, institutning O`zbekiston Yoshlar ittifoqi institut etakchisi bilan ham kelishilishi mumkin.

Intizomiy jazoga tortilgan talaba o`ziga qo`llanilgan jazo chorasing qonuniyligi va adolatliligi yuzasidan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda norozilik bildirishi mumkin.

Talabaga nisbatan qo`llanilgan intizomiy jazo yuzasidan ma`lumot uning shaxsiy yig`ma jildida saqlanadi.

Intizomiy jazolar talabalarning kasallik yoki ta`tilda bo`lgan vaqtin hisobga olinmagan holda xatti-harakat aniqlangandan so`ng bir oydan va xatti-harakat sodir etilganidan so`ng olti oydan kechiktirilmay qo`llaniladi. Talabalar kasallik paytida, akademik ta`til yoki homiladorlik va tug`ish holati bilan bog`liq bo`lgan ta`til paytlarda talabalar safidan chetlashtirish mumkin emas.

Kasallik payti talaba (yoki uning ota-onasi) ariza va tegishli ma`lumotnomalar bilan, odatda, bir haftadan kechiktirilmasdan oliy ta`lim muassasasiga ma`lum qilinadi.

Talaba institutdan chetlashtirilganda, unga (ota-onasi yoki huquqiy vasiysiga ularning arizasi bilan) shaxsiy hujjatlari, belgilangan shakldagi akademik ma`lumotnomalar topshiriladi va ularning nusxasi shaxsiy yig`ma jildga tikib qo`yiladi.

Institutda ishlab chiqarishdan ajralgan yoki ajralmagan holda muvaffaqiyatli o`qiyotgan talabalarga ularning ish joyidan O`zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining tegishli moddalarida nazarda tutilgan imtiyozlar (maosh saqlangan yoki saqlanmagan holda qo`shimcha ta`til, oliy ta`lim muassasasi joylashgan manzilga borish va kelish uchun yo`l haqi va boshqalar) beriladi.

#### Doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar:

3.9. Institutda falsafa doktori (RhD) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalar tayanch doktorantura, doktorantura orqali va mustaqil ravishda tayyorlanadi.

3.10. Institutda professor-o`qituvchilarning tarkibi, ilmiy xodimlar, texnik-muhandislik, ma`muriy-xo`jalik, ishlab chiqarish, o`quv-yordamchi va boshqa ishchi-xizmatchilar lavozimlari mavjud.

3.11. Professor - o`qituvchilar lavozimlariga ishga qabul qilish O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 fevral` 20-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta`lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to`g`risida”gi Nizomga muvofiq tanlov asosida amalga oshiriladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 9 mart F-137 va 2005 yil 7 maydagi F-2209-sonli farmoyishlariga muvofiq oliy ta`lim muassasasining prorektorlari rektor tavsiyasiga ko`ra O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vaziri tomonidan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni hamda Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda tayinlanadi. Fakul`tet dekani Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi bilan kelishilgan holda oliy ta`lim muassasasi rektorining buyrug`i asosida tayinlanadi.

3.12. Institutning professor-o`qituvchilari va ilmiy xodimlari quyidagi huquqlarga ega:

- a) belgilangan tartibda institut va fakul`tet Kengashlariga saylash va saylanish;
- b) oliy ta`lim muassasasining faoliyatiga taalluqli masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;
- v) oliy ta`lim muassasasining axborot-resurs markazi, o`quv va ilmiy bo`linmalarning xizmatlaridan, shuningdek, ijtimoiy-maishiy, tibbiy va boshqa bo`limlar xizmatidan jamoa shartnomasiga muvofiq foydalanish;
- g) o`qitishning uslub va vositalarini tanlash, o`quv va ilmiy jarayonning yuqori sifatini ta`minlovchi ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish;
- d) oliy ta`lim muassasasi ma`muriyatining buyruq va farmoyishlari yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda murojaat qilish;
- e) qonunchilikda belgilangan tartibda vakant professor-o`qituvchi lavozimlariga e`lon qilingan tanlovlarda qatnashish;
- j) o`zları ishlayotgan kafedra, fakul`teten tashqari boshqa fakul`tet, kafedra, tashkilotlarda o`rindoshlik asosida ishlash (asosiy ish joyi bilan kelishilgan holda);
- z) xorijiy hamkasblarning sohaga doir ilmiy va o`quv-uslubiy adabiyotlari bilan tanishish va ular bilan fikr almashish;
- i) o`z fani bo`yicha sifatli darsliklar va o`quv qo`llanmalar tayyorlash;
- y) nazariy bilimlarini amaliy tajribasini, ilmiy-tadqiqot olib borish uslubini, pedagogik mahoratini takomillashtirib borish;
- k) talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;
- l) grantlar, ilmiy loyihalar, xo`jalik shartnomalarida ishtirok etish;

m) O`zbekiston Respublikasining ta`lim sohasiga oid qonunchiligidagi belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

3.13. Institutning professor-o`qituvchilarini va ilmiy xodimlarining majburiyatlarini quyidagilardan iborat:

- ta`lim to`g`risidagi qonunchilik, mehnat intizomi, institutning Ustavi, Ichki tartib va odob-ahloq qoidalariga qat`iy roya qilish, o`zlarining xizmat vazifalarini vijdonan bajarish va o`qituvchilik sha`niga dog` tushirmaslik;
- ish jarayonida muloqat qiladigan institut xodimlari, talabalari va boshqa shaxslar bilan hushfe`l munosabatda bo`lish;
- ish beruvchining qonuniy farmoyishlarini, har yili tasdiqlanadigan shaxsiy ish rejaning o`quv-uslubiy, ilmiy va ma`naviy-ma`rifiy ishlarini o`z vaqtida va sifatli bajarish;
- darslik, o`quv qo`llanma va boshqa o`quv adabiyotlari, ilmiy maqolalar, monografiyalar yozish;
- tarbiyaviy ishlarni olib borish, talabalar bilan ma`naviy- ma`rifiy ishlarda, shu jumladan, darsdan tashqari vaqtarda o`tkaziladigan tadbirdarda bevosita ishtirok etish;
- kafedraning tasdiqlangan ilmiy-amaliy, ilmiy-pedagogik anjumanlarida ishtirok etish;
- o`z malakasini muntazam ravishda oshirib borish;
- akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun hamkorlikda yangi avlod o`quv adabiyotlari, o`quv-uslubiy majmular yaratishda ishtirok etish;
- akademik litsey va kasb-hunar kollejlariда ochiq va muammoli mashg`ulotlar hamda "master klass"lar o`tkazish;
- o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi tizimi muassasalarida o`tkaziladigan ma`naviy- ma`rifiy tadbirdarda ishtirok etish;
- o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi tizimi muassasalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya hamda pedagogik texnologiyalar asosida ta`lim sifatini oshirishga doimiy ravishda ko`maklashish;
- mehnatni muhofaza qilish, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish canitariya va gigienasi qoidalariga roya qilish;
- institutning mol-mulkini avaylash, undan oqilona foydalanish;
- ish beruvchiga bevosita etkazilgan moddiy zararni o`rnatilgan tartibda qoplash;
- institutning jamoatchilik ishlarida qatnashish;
- pedagogik va ilmiy jarayonning samaradorligini ta`minlash;
- ta`lim oluvchilarining tanlagan yo`nalishi (mutaxassisligi) bo`yicha yuksak kasbiy tayyorgarligini va mehnatga bo`lgan qobiliyatni shakllantirish;
- chet tillari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan bilim darajasini muntazam oshirib borish;

- ta`lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, ijodiy qobiliyatini shakllantirish;
- institutda “Ustoz-shogird” tizimida ishtirok etib, o`ziga biriktirilgan shogirdlar bilan pedagogik, ilmiy-pedagogik, ma`naviy-ma`rifiy va tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish;
- o`zining odobi, madaniyati, ma`naviy saviyasi bilan o`rnak bo`lish;
- kiyinish madaniyatiga rioya etish;
- respublikada amalga oshirilayotgan keng ko`lamdagi ilmiy- iqtisodiy islohotlar va jahonda ro`y berayotgan yangiliklardan xabardor bo`lish;
- institut, fakul`tet, kafedra tomonidan tashkil etiladigan madaniy, ma`naviy, ma`rifiy tadbirda faol ishtirok etish;
- o`zi o`qitadigan fan dasturini muntazam fan va texnika yutuqlari asosida boyitib borish;
- o`quv mashg`ulotlarini yuqori saviyada tashkil etish va o`tish;
- fan yo`nalishiga tegishli yangi manbalarni topish va ular bilan talabalarni tanishtirib borish;
- har o`quv yili boshlangunga qadar o`zi mashg`ulot olib boradigan fan(lar)ning ishchi o`quv dasturi, kalendar` rejasini ishlab chiqish va kafedra majlisida tasdiqlash;
- reyting nazoratlarini o`z vaqtida o`tkazish;
- talabalar bilimini xolisona baholash;
- yangi pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo`llash;
- o`zining ilmiy salohiyati va pedagogik mahoratini oshirish;
- talabalar ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;
- xo`jalik shartnomalari asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish;
- oliy ta`lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda faol qatnashish.

3.14. Institut xodimlarining chet el xizmat safarlari vazirlik tomonidan tasdiqlangan “O`zbekiston Respublikasi oliy ta`lim muassasalaridan xorijiy safarlarga borish tartibi to`g`risida”gi muvaqqat Yo`riqnomasi asosida amalga oshiriladi.

#### IV.O`quv, o`quv-metodik, ilmiy-tadqiqot ishlari va pedagogik kadrlar tayyorlash

4.1. Oliy o`quv yurtidan keyingi institut quyidagi bakalavriat ta`lim yo`nalishlari va ta`limning asosiy va qo`shimcha ta`lim (pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish) dasturlari asosida pedagogik kadrlar tayyorlashni amalga oshirib,

magistratura mutaxassisliklari bo`yicha oliy ta`limni amalga oshiradi:

Ilova: bakalavriat va magistratura mutaxassisliklari bo`yicha

a) bakalavriat:

1. 5110100 -Matematika o`qitish metodikasi
2. 5110200 -Fizika va astronomiya o`qitish metodikasi
3. 5110300 -Kimyo o`qitish metodikasi
4. 5110400 -Biologiya o`qitish metodikasi
5. 5110500 -Geografiya o`qitish metodikasi
6. 5110600 -Tarix o`qitish metodikasi
7. 5110700 -Informatika o`qitish metodikasi
8. 5110800 -Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi
9. 5110900 -Pedagogika va psixologiya
10. 5111011 -Kasbiy ta`lim: dizayn
11. 5111100 -Musiqa ta`limi
12. 5111200 -O`zbek tili va adabiyoti
13. 5111300 -Rus tili va adabiyoti
14. 5111302 -Qoraqalpoq tili va adabiyoti

15. 5111300 -Qozok tili va adabiyoti
16. 5111300 -Rus tili va adabiyoti o`zga tilli guruhlarda
17. 5111400 -Ingliz tili va adabiyoti
18. 5111600 -Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi
19. 5111700 -Boshlang`ich ta`lim va sport tarbiyaviy ishi
20. 5111800 -Maktabgacha ta`lim
21. 5111900- Defektologiya
22. 5112000 -Jismoniy madaniyat
23. 5112001 - Jismoniy madaniyat (xotin-qizlar sporti yo`nalishi bo`yicha)
24. 5112100-Mehnat ta`limi

b) magistratura o`quv shakli uchun quyidagi ta`lim yo`nalishlari mavjud:

1. 5A110401 -Aniq va tabiiy fanlar o`qitish metodikasi (Biologiya)
2. 5A110601 -Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o`qitish metodikasi (Tarix)
3. 5A110701 - Ta`limda axborot texnologiyalari
4. 5A110901 - Pedagogika nazariyasi va tarixi (umumiy pedagogika)
5. 5A110902 - Pedagogika va psixologiya

6. 5A111201 - O`zbek tili va adabiyoti
7. 5A111601 - Ijtimoiy gumanitar fanlarni o`qitish metodikasi (ma`naviyat asoslari)
8. 5A111701 - Ta`lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang`ich ta`lim)

Institutda kadrlar iste`molchilarining talablari asosida oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining buyrug`i bilan yangi yo`nalish va mutaxassisliklar bo`yicha kadrlar tayyorlanishini tashkil etish mumkin.

Institutda ta`limning asosiy dasturlari quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi: bakalavriat va magistratura.

Bakalavriat - ta`lim yo`nalishi bo`yicha fundamental va amaliy bilimlar beruvchi, o`qish muddati 4 yildan kam bo`Imagan kundizgi, 3 yildan kam bo`Imagan maxsus sirtqi tayanch oliy ta`limdir.

Bakalavr dasturini tugatgan bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlari asosida ta`lim yo`nalishi bo`yicha «Bakalavr» darajasi beriladi hamda davlat namunasidagi diplom topshiriladi.

Magistratura - yo`nalishning muayyan mutaxassisligi bo`yicha fundamental va amaliy bilimlar beruvchi, bakalavriat negizida, o`qish muddati 2 yildan kam bo`Imagan oliy ta`limdir.

Magistratura dasturini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakuni natijasi asosida muayyan mutaxassislik bo`yicha «Magistr» darajasi beriladi va davlat namunasidagi diplom topshiriladi.

Bakalavr va magistrlik davlat namunasidagi diplom uning egalariga kasbiy faoliyat bilan shug`ullanish yoki tanlangan ta`lim yo`nalishiga va mutaxassisligiga muvofiq ta`lim muassasalarining navbatdagi bosqichlarida o`qishni davom ettirish huquqi beriladi.

Institutda ta`lim jarayoni tayanch oliy ta`lim muassasasi tomonidan ishlab chiqiladigan va o`rnatalgan tartibda tasdiqlanadigan o`quv rejalarini va dasturlari asosida institut rektori tomonidan tasdiqlangan yillik o`quv jarayoni hamda mashg`ulotlar jadvali bilan tartibga solinadi.

Ta`lim jarayonini maqsadli yo`naltirish yo`li bilan tashkil etish, ya`ni ta`lim shakllari, uslub va vositalarni tanlash yo`li bilan institut talabalariga oliy ta`limning asosiy kasbiy ta`lim dasturlarini o`zlashtirish uchun zaruriy sharoitlar yaratib berilishi lozim.

Ta`lim va tarbiyaning birligi Oliy ta`limning davlat ta`lim standartlari, malaka talablari, o`quv reja va dasturlari asosida ta`minlanadi.

4.2.Institutda o`quv mashg`ulotlarining quyidagi asosiy turlari belgilangan: ma`ruza, amaliy, laboratoriya, seminar, kurs ishi, malakaviy amaliyat, bitiruv malakaviy ishi hamda magistrlik dissertatsiyasi.

Auditoriya mashg`ulotlarining barcha turlari uchun 80 daqiqalik akademik soat belgilangan. O`quv mashg`ulotlari orasidagi tanaffus kamida 10 daqiqa bo`ladi.

Ta`lim va tarbiya olib boriladigan tillar: o`zbek, qoraqalpoq, rus va qozoq tillari hisoblanadi.

4.3.Institutda kadrlarni tayyorlash ishlab chiqarishdan ajralgan yoki ajralmagan hollarda olib boriladi.

Oliy ta`limning asosiy kasbiy ta`lim dasturi doirasida ta`lim olishning barcha shakllari uchun o`rnatilgan tartibda ishlab chiqilgan va “Uzstandart” agentligida davlat ro`yxatidan o`tkazilgan davlat ta`lim standartlari va malaka talablari qo`llaniladi.

4.4.Institutda o`quv yili ikki semestrغا bo`linadi va uning har birida talabalarning o`zlashtirishi reyting nazorati shaklida olib boriladi.

O`zlashtiruvchi talabalarni kursdan kursga o`tkazish fakul`tet dekanining tavsiyasi asosida rektor buyrug`i bilan amalga oshiriladi. Talabalarni kursdan kursga shartli o`tkazish mumkin emas.

Oliy ta`limning ta`lim dasturlarini o`zlashtirish Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan va Adliya vazirligida davlat ro`yxatidan o`tkazilgan “Oliy ta`lim muassasalari talabalari bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to`g`risida Nizom”ga muvofiq tartibga solinadi hamda “O`zbekiston Respublikasi oliy ta`lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to`g`risida”gi Nizomga muvofiq bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari asosida tugallanadi.

4.6. Institutda ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalari, ta`limni individuallashtirish va mustaqil ta`lim olish vositalarini, modul tizimi hamda masofaviy ta`lim berishni qo`llash hisobiga mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga yo`naltirilgan ilmiy-uslubiy ishlar amalga oshiriladi.

Oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim -O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim tizimini yanada takomillashtirish to`g`risida”gi 2017 yil 16 fevraldagagi PQ-4958-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining “Oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi 2017 yil 22 maydagi 304-sonli qarori asosida tashkil etiladi.

## V. Institutning tarkibi

Institutning tarkibiga quyidagilar kiradi:

a) Fakul`tetlar:

1. Fizika-mehnat fakul`teti
2. Matematika-informatika fakul`teti
3. Tarix-geografiya fakul`teti
4. Kimyo-biologiya fakul`teti
5. Jismoniy madaniyat fakul`teti
6. Pedagogika fakul`teti
7. Maktabgacha va boshlang`ish ta`lim fakul`teti
8. Filologiya fakul`teti
9. Chet tillari fakul`teti

b) Kafedralar:

1. Matematika o`qitish metodikasi
2. Informatika o`qitish metodikasi
3. Fizika o`qitish metodikasi
4. Mehnat ta`limi
5. O`zbek tili
6. O`zbek adabiyoti
7. Qozoq tili va adabiyoti
8. Ingliz tili va adabiyoti
9. Fakul`tetlararo chet tillari
- 10 .Rus tili va adabiyoti
11. Tarix o`qitish metodikasi
12. Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi
13. Ijtimoiy fanlar
14. Qoraqalpoq tili
15. Qoraqalpoq adabiyoti
16. Biologiya o`qitish metodikasi
17. Kimyo o`qitish metodikasi
18. Geografiya o`qitish metodikasi
19. Jismoniy madaniyat
20. Fakul`tetlararo jismoniy madaniyat
21. Pedagogika
22. Psixologiya

23. Tasviriy san`at va muxandislik grafikasi

24. Musiqiy ta`lim

25. Boshlang`ich ta`lim metodikasi

26. Umumiy pedagogika va psixologiya

27. Maktabgacha ta`lim

v) boshqarma, markaz va bo`limlar:

1. O`quv-uslubiy boshqarma

2. Xodimlar bo`limi

3. Ichki nazorat va monitoring bo`limi

4. Magistratura bo`limi

5. Buxgalteriya

6. “Ma`naviyat va ma`rifat” va iqtidorli yoshlар bilan ishlash bo`limi

7. Ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo`limi

8. Marketing bo`limi

9. Devonxona va arxiv

10. Reja-moliya bo`limi

11. Texnik foydalanish va xo`jalik bo`limi

12. Axborot resurs markazi

13. Axborot texnologiyalari markazi

14. Xalqaro bo`lim

15. Talabalar turar joylari

16. Tahririy-nashriyot bo`lim
17. Fuqaro mudofaasi va mehnatni muhofazasi bo`limi
18. Ta`lim muassasalari bilan ishlash bo`limi
19. 1 va 2 bo`limlar
20. Yuriskonsul`t
21. Ta`lim sifatini nazorat qilish bo`limi
22. Maxsus sirtqi bo`lim
23. Xalq ta`limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi.

Institut fakul`tetlarini O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi bilan kelishilgan holda rektor tomonidan tayinlanadigan dekan boshqaradi.

Fakul`tet dekani o`z faoliyatida “Oliy ta`lim muassasasining fakul`teti to`g`risidagi Nizom”ga amal qiladi.

“Oliy ta`lim muassasasining fakul`teti to`g`risida”gi Nizomga muvofiq fakul`tetda Kengash tashkil etiladi. Kengashning tarkibi, vakolatlari va faoliyati “Oliy ta`lim muassasasi fakul`tetining Kengashi to`g`risida”gi Nizomga muvofiq tashkil etiladi.

Kafedra faoliyatiga O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizomga muvofiq tanlov asosida institutning Kengashi tomonidan saylanadigan mudir rahbarlik qiladi.

Kafedra mudirining vakolatlari va kafedra faoliyati belgilangan tartibda “Oliy ta`lim muassasasining kafedrasasi to`g`risida”gi Nizomga muvofiq belgilanadi.

g) Institut tasarrufida 1 ta akademik litsey faoliyat ko`rsatmoqda.

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti qoshidagi 1-sonli Nukus akademik litseyi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26-sentyabr`dagi «Oliy ta`lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maqsadli tayerlash tizimini yanada takomilashtirish tug`risida» PQ-3290 qarori bilan institut tasarrufiga berildi.

Institut huzuridagi akademik litsey yuridik shaxs maqomiga ega davlat ta`lim muassasasi bo`lib, o`z mustaqil balansiga, O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g`aznachiligidagi shaxsiy g`azna varaqalariga hamda O`zbekiston Respublikasining

Davlat gerbi tushirilgan va o`z nomi Davlat tilida yoziladigan muhriga ega bo`ladi.

Akademik litseylar samarali faoliyat ko`rsatishi, ulardagagi o`qitish sifatini ta`minlash hamda ular moddiy-texnika bazasi va yuqori malakali o`qituvchilar tarkibi bilan ta`minlanganligi, ta`lim-tarbiya jarayoni ustidan nazorat qilinishi bitiruvchilarning oliy ta`lim muassasalariga o`qishga kirish ko`rsatkichlarini nazorat qilib borish mas`uliyati Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bilan ishlash bo`yicha prorektor va litsey direktoriga yuklanadi.

d) Institut huzuridagi xalq ta`limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentyabrdagi “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash, xalq ta`limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-3289-sonli Qarori bilan Qoraqalpog`iston Respublikasi xalq ta`limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Nukus davlat pedagogika instituti tasarrufiga o`tkazilgan.

Institut huzuridagi xalq ta`limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi institutning huquqlari va majburiyatları bo`yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Nukus davlat pedagogika institut huzuridagi xalq ta`limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi yuridik shaxs maqomiga ega davlat ta`lim muassasasi bo`lib, o`z mustaqil balansiga, O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g`aznachiligidagi shaxsiy g`azna varaqalariga hamda O`zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tushirilgan va o`z nomi Davlat tilida yoziladigan muhriga ega bo`ladi.

Markazda 6 kafedra, 6

bo`lim, 1 markaz (masofadan o`qitish) faoliyat ko`rsatadi.

e) Maxsus sirtqi bo`lim.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 avgustdagi PQ-3183-son «Oliy ta`lim muassasalarida pedagog yo`nalishida maxsus sirtqi bo`limlarni tashkil etish to`g`risida» qarori hamda O`zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2017 yil 9 avgustdagi 07/1-1926-son topshiriqlarini ijrosini ta`minlash maqsadida O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`limi vazirining 2017 yil 12 avgustdagi 559-sonli buyrug`i asosida Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida pedagogika yo`nalishida maxsus sirtqi bo`lim tashkil etildi.

## VI. Institutni boshqarish

6.1. Institutni boshqarish O`zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda ushbu Ustavga muvofiq yakka rahbarlik va institut Kengashi, Vasiylar kengashi orqali jamoatchilik boshqaruvini uyg`unlashtirish tamoyili asosida amalga oshiriladi.

6.2. Institutni bevosita boshqarish O`zbekiston Respublikasi Prezidentning 1992 yil 9 mart 137-f farmoyishida belgilangan tartib asosida tayinlanadigan rektor tomonidan amalga oshiriladi.

Rektor oliy ta`lim muassasasi faoliyatiga, shuningdek, institutning Ichki tartib qoidalari, Oliy ta`lim to`g`risidagi Nizom hamda mazkur Ustavda belgilangan majburiyatlar uchun to`la mas`uldir.

Rektor O`zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq institut nomidan ish olib boradi, barcha idoralar, muassasalar, korxonalarda uning vakili sifatida qatnashadi, institutning mol-mulkiga mas`ullik qiladi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalar beradi, bank muassasalarida institutning hisob raqamlarini ochadi, moliyaviy mablag`lardan o`rnatilgan tartibda foydalanish bo`yicha buyruq va farmoyishlar beradi.

Rektor lavozimi vakolati doirasida:

- institutning barcha xodimlari, talabalari va boshqa ta`lim olayotganlar uchun buyruqlar chiqaradi va topshiriqlar beradi;
- Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi bilan kelishilgan holda fakul`tet dekanlari, bosh hisobchi, kassir hamda Adliya vazirligi bilan kelishilgan holda yuriskonsul`t bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;
- institut prorektori lavozimiga nomzodlarni tavsiya etadi va prorektorlar, dekanlarning muayyan vazifalari xamda mas`uliyatlarini belgilaydi;
- institut xodimlari bilan O`zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;
- institut tarkibiga kirgan ilmiy-tadqiqot, tajriba-eksperimental hamda boshqa tashkilot va bo`linmalarning vazifalarini belgilaydi, ular to`g`risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;
- institut xodimlarining lavozim maoshlariga ustamalar va qo`shimchalarni o`rnatilgan tartibda belgilaydi;
- kasaba uyushma qo`mitasi yoki institutning boshqa vakolatli organi bilan kelishgan holda Ichki tartib va

Odob-ahloq koidalalarini tasdiqlaydi;

- institutda Namunaviy shtat birliklariga muvofiq ajratilgan mablag`lar hamda ish haqi fondi, tasdiqlangan oliy ta`lim muassasasi - institut xodimlarining soni va lavozim maoshlari, tarif setkasi doirasida institut professor-o`qituvchilari tarkibi va institutning boshqa xodimlarining shtat birligini tasdiqlaydi hamda lavozim maoshlarini belgilaydi;
- institut Kengashining tavsiyasiga ko`ra o`rnatilgan tartibda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq fakul`tetlarni, kafedralarni ochish yoki yopish qarorlarini tasdiqlaydi. “Oliy ta`lim muassasasi kafedrasi to`g`risida namunaviy Nizom” talablaridan kelib chiqqan holda institut Kengashining tavsiyasiga ko`ra, kafederalar tashkil etiladi yoki tugatiladi. Institut rektoriga o`zi ishlayotgan oliy ta`lim muassasasi va undan tashqarida haq to`lanadigan boshqa rahbarlik lavozimida (ilmiy va ilmiy- metodik rahbarlikdan tashqari) o`rindoshlik bo`yicha ishlashga ruxsat etilmaydi. Rektor o`z vazifalarini o`rindoshlik bo`yicha bajarishi mumkin emas.

6.3. “Oliy ta`lim to`g`risida”gi Nizomga muvofiq institut faoliyatining asosiy masalalarini ko`rish uchun rektor raisligida Kengash tashkil etiladi.

Kengash tarkibiga rektor (rais), prorektorlar, fakul`tet dekanlari, oliy o`quv yurti tarkibiga kiruvchi mustaqil tashkilot va tarmoqlar direktori, mutaxassis chiqaruvchi kafedra mudirlari, institutning yoshlar ittifoqi etakchisi, kasaba uyushmasi kengashi vakillari kiradi. Kengashning boshqa a`zolari umumiy majlisda (konferentsiyada) yashirin ovoz berish yo`li bilan saylanadi. Kengash tarkibi rektor buyrug`i bilan tasdiqlanadi.

Kengashning vakolati va faoliyat yuritish tartibi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Oliy ta`lim muassasasining Kengashi to`g`risida namunaviy Nizom” bilan belgilanadi.

6.4. Institutda kasaba uyushmalari va boshqa jamoatchilik tashkilotlari faoliyat ko`rsatadi. Talabalar va xodimlar manfaatlarini himoyalashni xodimlar va talabalarning vakillari sifatida institutda saylangan organlari amalga oshiradi. Talabalar va xodimlar vakolatli organlarining huquqlari va ularga nisbatan oliy ta`lim muassasasi - institut ma`muriyatining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- xodimlar vakillik organlarining huquqlariga rioya qilish, ularning faoliyatiga ko`maklashish;

- xodimlarning manfaatlariga taalluqli qarorlar qabul qilishdan oldin ularning vakillik organlari bilan maslahatlashish, mehnat to`g`risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda ko`rsatilgan hollarda esa, ularning roziligini olish;
- xodimlar vakillik organlarining takliflarini o`z vaqtida ko`rib chiqish va qabul qilingan qarorlar haqida ularga yozma ravishda asosli javob berish;
- xodimlarning vakillik organlari a`zolarini korxonaga, manfaatlari ifoda etilayotgan xodimlarning ish joylariga moneliksiz qo`yish;
- xodimlarning vakillik organlariga mehnat, institut faoliyati masalalariga va boshqa ijti moiylisiga masalalarga doir axborotni tekin berish;
- xodimlarning vakillik organlariga o`z vazifalarini bajarishlari uchun zarur sharoit yaratib berish;
- xodimlarning vakillik organlariga nisbatan mehnat to`g`risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

Amaldagi nizomlarga muvofiq institutda ilmiy va ixtiyoriy jamiyatlar, ilmiy-uslubiy, ilmiy-texnik kengashlar va komissiyalar, yosh olimlar kengashi va boshqalar tashkil etilishi mumkin.

Rektorat va Kengash o`z faoliyatida institut jamoatchilik tashkilotlarining tavsiyalarini ko`rib chiqadi va o`z faoliyatlarida ularni hisobga oladi.

## VII. Moliya - xo`jalik faoliyati va moddiy-texnik baza

7.1. Institutga ushbu Ustavda nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadida operativ boshqarish huquqi bilan davlat (ta`sische) tomonidan binolar, inshootlar, mulkiy majmualar, o`quv tajiriba bazasi, institutning pasportiga muvofiq asbob-uskunalar, shuningdek iste`mol, ijtimoiy, madaniy va boshqa maqsadlar uchun zarur bo`lgan mulklar biriktirilgan.

Institut O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga oshiriladigan davlat tasarrufidan chiqariladigan va xususiyashtiriladigan ob`ektlar qatoriga kiritilgan.

Institutga ajratilgan er uchastkalari muddatsiz tekin foydalanish uchun biriktirilgan.

7.2. Institut jismoniy va yuridik shaxslardan sovg`a, hadya, xomiylik yoki vasiyat bo`yicha berilgan pul mablag`lari, mol-mulk va boshka mulkiy ob`ektlarga, institut faoliyatining samarasi hisoblangan intellektual va ijodiy mahsulotlarga, shuningdek o`z faoliyati orqali oladigan daromadlar va bu daromadlar hisobidan sotib olinadigan mulkiy ob`ektlarga egalik qiladi.

7.3. Institut mol-mulkni ijaraga oluvchi va mol-mulkni ijaraga beruvchi sifatida faoliyat ko`rsatish huquqiga ega. O`zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Ijara to`g`risidagi qonun va O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan “Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to`g`risida”gi Nizomga muvofiq o`ziga biriktirilgan ijaraga berilishi qonun hujjatlariga zid bo`Imagan binolar, inshootlar va ularning qismlari, asbob-uskunalar, transport vositalari shaklidagi davlat mulki va boshqa mol-mulklari Kengashning roziligi bilan tasarruf etish huquqisiz, belgilangan narxlar bo`yicha ijaraga berishni amalga oshiradi.

Ijara haqi sifatida olingan mablag`lar ta`lim jarayonini ta`minlash va uni rivojlantirish uchun foydalaniлади.

7.4. Institutning ta`lim faoliyatini moliyaviy ta`minlash davlat grantlari asosida mutaxassislar tayyorlash uchun ajratilgan byudjet mablag`lari, davlat tomonidan belgilangan normativlardan kelib chiqqan holda qayta tayyorlash va xodimlarning malakasini oshirish hisobiga ajratilgan mablag`lar, shuningdek byudjetdan tashqari mablag`lar, jumladan, talabalar va tinglovchilarni o`qitish uchun belgilangan tartibda olingan to`lov-shartnomaga asosidagi mablag`lar va tadbirkorlik tushumlari hisobidan amalga oshiriladi.

7.5. Institut asosiy faoliyatiga zarar etmaydigan tartibda ta`lim hamda boshqa sohalarda pullik ta`lim va servis xizmatlarini amalga oshirishi mumkin. Institut shug`ullanadigan tadbirkorlik faoliyati uning Ustavida belgilangan vazifalarga mos kelishi kerak.

Institut o`z mulki bilan xo`jalik yurituvchi sub`ektlar, jamiyatlar va shirkatlarning ustav jamg`armasida qatnashish, pullik ta`lim xizmatlari, maslahatlar va boshqa xizmatlar uchun narxlarni belgilash, soliq va konunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiy to`lovlardan so`ng qolgan daromadni mustaqil tasarruf etish huquqiga ega.

Institut pullik ta`lim xizmatlari ko`rsatishni byudjetdan ajratiladigan mablag`lar hisobidagi ta`lim faoliyati doirasida va uning o`rniga amalga oshirishi mumkin emas.

Institut O`zbekiston Respublikasi qonunchiligiga hamda mazkur Ustavga zid bo`Imagan shartnomalarni tuzish, majburiyatlar va boshqa shartlarni belgilash bo`yicha masalalarni musta

qil hal qiladi.

7.6. Institutda lavozim maoshlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 24 iyuldagagi “Respublika oliy ta`lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to`lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag`batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-926-son qarori, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 1 avgustdagagi “Respublika oliy ta`lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to`lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag`batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi 164-sonli qarori va mehnatga haq to`lashning yagona tarif setkasiga muvofiq belgilanadi. Institut xodimiga lavozim maoshi (stavka) o`z funktsional vazifalari ni hamda mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ishlarni bajarganligi uchun to`lanadi. Qo`shimcha maosh, ustama va boshqa moddiy rag`batlantirish tadbirlarining hajmini institut mustaqil, moddiy rag`batlantirish fondi doirasida konunchilikda belgilangan tartibda va hajmda amalga oshiradi.

Belgilangan mehnat haqi maxsus ishchi guruh xulosasiga ko`ra faqat uni oshirish maqsadida qayta ko`rib chiqilishi mumkin.

7.7. Institutda tashkil etilgan jamoat tashkilotlariga faoliyat ko`rsatishlari uchun zarur bo`lgan xonalar ajratiladi.

Institut qoshida tibbiy yordam uchun, shuningdek, o`rnatalgan tartibda tashkil etilgan umumiy ovqatlanish tuzilmasiga (oshxona, bufet) isitish, yoritish va suv ta`minoti bilan ta`minlangan xonalar ajratiladi.

Institutning tegishli binolarini ta`mirlash, rekonstruktsiya qilish yoki yangilarini qurish, ularning moliyaviy ta`minoti qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

## VIII. Xalqaro hamkorlik

8.1. Institut O`zbekiston Respublikasi “Ta`lim to`g`risida”gi Qonunining 33-moddasiga muvofiq ta`lim sohasida xalqaro hamkorlikda ishtiroy etadi, chet davlatlarning tegishli o`quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o`rnatish huquqiga ega.

Chet el fuqarolarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ta`lim muassasasi ilmiy - pedagogik xodimlarining O`zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida o`qituvchilik va ilmiy - tadqiqotchilik ishlari davlatlararo organining xorijiy davlatlarning ta`limni boshqarish bo`yicha tegishli organlari o`rtasidagi shartnomalar, shuningdek institutning qonunchilikka muvofiq chet el fuqarolari va xorijiy yuridik shaxslar bilan bevosita tuzgan shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

#### 8.2. Institut quyidagi huquqlarga ega:

- O`zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari deb qaralishi mumkin bo`Imagan, xorijiy sheriklar bilan hamkorlikdagi faoliyat to`g`risida belgilangan tartib asosida shartnomalar tuzish;
- xorijiy sheriklar ishtirokida institutning tarkibiy bo`linmalar (markazlar, laboratoriylar, texnik parklar va boshqa bo`linmalar)ni qonunchilikda ko`zda tutilgan tartibda tashkil etish.

8.3. Institut O`zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq ushbu Ustavda nazarda tutilgan va “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilangan vazifalarni bajarish borasida aloqalarni rivojlantirishga yo`naltirilgan tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug`ullanish huquqiga ega.

8.4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta`lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi PQ-2909-sonli qarorining ijrosini ta`minlash maqsadida Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida quydagilar amalga oshiriladi:

- o`qituvchilar, yosh olimlar va magistrantlarni malaka oshirishga, stajirovkaga magistratura va PhD bo`yicha xorijiy OTM bilan muzokaralar olib borish;
- O`quv jarayoniga halqaro ta`lim standartlariga asoslangan ilg`or pedagogik texnologiyalar, o`quv dasurlari va o`quv uslubiy materiallarni keng joriy qilish maqsadida xorijiy OTM bilan hamkorlik aloqalarini o`rnatish.

Chet el fuqarolarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ta`lim muassasasi ilmiy - pedagogik xodimlarining O`zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida o`qituvchilik va ilmiy-tadqiqotchilik ishlari davlatlararo organining xorijiy davlatlarning ta`limni boshqarish bo`yicha tegishli organlari orasidagi shartnomalar, shuningdek, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining qonunchilikka muvofiq chet el fuqarolari va xorijiy yuridik shaxslar bilan bevosita tuzgan shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

## IX. Yakuniy qoidalar

9.1. Institut O`zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi belgilangan tartibda quyidagilarga javob beradi:

- uning vakolatiga kiritilgan vazifalarni bajarilishiga;
- ta`lim jarayonida o`quv reja va jadvallarga muvofiq ta`lim dasturlari hajmini to`liq bajarilishiga;
- ta`lim jarayoni vaqtida institutda ta`lim oluvchilar va xodimlarning o`z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog`liq holda sog`ligiga zarar etkanida, basharti zarar institut aybi bilan kelib chiqqanligi isbotlangan taqdirda hayoti va sog`lig`iga;
- ta`lim oluvchilar va xodimlarning o`z vazifalarini bajarishi bilan bog`liq holatlarda ularning huquq va erkinliklarining buzilganligida;
- O`zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi nazarda tutilgan boshqa xatti-harakatlar ga.

9.2. Institut O`zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi muvofiq O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartib asosida qayta tashkil qilinishi yoki tugatilishi mumkin.

9.3. Ushbu ustav O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan tasdiqlanib, o`rnatilgan tartibda davlat ro`yxatidan o`tkazilgandan so`ng kuchga kiritiladi. Institutning Ustaviga o`zgartirish yoki qo`shimchalar kiritish vazirlikning buyrug`i asosida amalga oshiriladi.

9.4. Ushbu Ustav institutning 2017 yil 28-noyabr`dagi institut Kengashi yig`ilishining 4-sonli qarori asosida ma`qullangan.

O`quv ishlari bo`yicha prorektor:

M.A.Jumamuratov

Ma`naviyat va ma`rifat

ishlari bo`yicha prorektor:

Q.A.Qadirov

Ilmiy ishlari bo`yicha prorektor:

M.A.Jalelov

Moliya va iqtisodiyot ishlari bo`yicha prorektor:

R.Q.Ibadullaev